

O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi “Tergov faoliyati” bakalavriat ta’lim yo‘nalishiga o‘qishga qabul qilish jarayonida ta’lim olishga moyilligini aniqlash bo‘yicha psixodiagnostik test

SPETSIFIKATSIYASI

Mazkur spetsifikatsiyaga amaldagi o‘quv-me‘yoriy hujjatlarga muvofiq qo‘shimchalar, o‘zgartirishlar va tuzatishlar kiritilishi mumkin.

1. Test topshiriqlarining qo‘llanish maqsadi

Ushbu test topshiriqlari xalqaro qabul qilingan metodikalar asosida talabgorlarning ta’lim olishga moyilligini, ularning intellektual qobiliyat darajasini aniqlashga mo‘ljallangan test sinovlarida qo‘llanadi.

2. Test topshiriqlarining mazmunini belgilovchi me‘yoriy hujjatlar

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jinoyatlarni tergov qilish sohasida malakali kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish to‘g‘risida” 2022-yil 28-noyabrdagi PF-257-son farmoni;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasida oliy ta’lim va oliy ta’limdan keyingi ta’limga qabul qilish va o‘qitish tartibini belgilash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 6-apreldagi 143-son qarori.

3. Test topshiriqlarining mazmuni

Test topshiriqlari shaxsning ta’limga, bilim olishga moyilligini o‘rganish, intellektual qobiliyatning rivojlanganlik darajasini aniqlashga yo‘nalgan bo‘lib quyidagi xalqaro metodlar asosida shakllantiriladi:

- QST (Kognitiv qobiliyatlarni aniqlashga mo‘ljallangan Qisqa saralash testi, mualliflar E.F. Vanderlik, V.N. Buzin);
- Ayzenk (intellektual koeffitsiyentni aniqlash);
- Amtxauer (intellekt tuzilishini diagnostika qilish);
- Veksler (IQ ni baholash, umumiy intellekt va uning tarkibiy komponentlarini diagnostika qilish).
- ARAMT (o‘smirlarning Aqliy rivojlanganlikni aniqlash maktab testi)

Test topshiriqlari talabgorlarning ta’lim olish salohiyatini aniqlash, verbal intellekt va mantiqiy fikrlash (intellektual qobiliyati) darajasini aniqlashga qaratilgan. Shuningdek, talabgorlarning tahlil qilish va umumlashtirish, ma’lumotni idrok etish tezligi va aniqligi, dalillarni solishtirish va ular o‘rtasidagi bog‘liqni aniqlash, tushunchalarni tasniflay olish qobiliyatini tekshiradi.

4. Test topshiriqlarining turlari

Test variantida test topshiriqlarining quyidagi turlaridan foydalaniladi:

Y1 –bitta to‘g‘ri javobga ega yopiq test topshirig‘i;

Y2 –bir nechta to‘g‘ri javobga ega yopiq test topshirig‘i;

Y3 –moslashtirishga asoslangan yopiq test topshiriqlari;

Y4 – dixotom test topshiriqlari (“to‘g‘ri-noto‘g‘ri”);

O1 – qisqa javobli ochiq test topshirig‘i

Test varianti topshiriqlari bo‘limlar asosida yaratilgan. Test variant Y1 topshiriqlaridan iborat. Aprobatsiya natijalariga ko‘ra qolgan Y2, Y3, Y4 va O1 test topshiriqlari turlari ham joriy etilishi mumkin.

5. Talabgorlarni tanlashda ta’lim olish qobiliyatining shakllanganligi, verbal intellekt va mantiqiy fikrlash darajasini aniqlashqa qo‘yiladigan talablar.

Bo‘lim	Qo‘yiladigan talablar
Fazoviy fikrlashga oid testlar	Quyidagi tushunchalarni bilish:
	Uch o‘lchovli fazo. Hajmli shakllar. Proyeksiya. Arifmetik amallar. Yassi shakllar. Shaklning aylanishi. Burilish burchagi. Ko‘pyoqlilarning yoyilmalari. Tasavvur qilish. Uch o‘lchovli fazoda hajmli shakllar
	Quyidagilarni bajara olish:
	Tasavvur qilish: shakllarning aylanishi, geometrik shakllarning fazoda joylashishi, hajmli va yassi shakllarni qo‘shish.
	Obyektlarning turli burchaklarga yo‘naltirilganligi.
	Xayolan hajmli shakllarni tarkibiy qismlarga ajratish.
	Aniqlash: obyektlar o‘rtasidagi munosabat va bog‘liqliklar, obyektlarning muhim belgi va xususiyatlari
	Shakl va obyektlarni birlashtirish.
	Obyektlarning yaxlit qiyofasini yaratish.
	Obyektlar o‘rtasida mantiqiy bog‘liqlikni o‘rnatish.
Abstrakt mantiqiy fikrlashga oid testlar	Quyidagi tushunchalarni bilish:
	Yassi va fazoviy shakllar. Arifmetik amallar. Tenglik. Shakl va obyektlarning aylanishi. Burilish burchagi. Izchillik. Simmetriya, Assimetriya. Shakl va obyektlarning umumiy belgilari. Shakl va obyektlarning farqli belgilari. Ko‘pyoqlilarning yoyilmalari. Tasavvur qilish. Uch o‘lchovli fazoda hajmli shakllar. Shakllarning nisbati. Harakatlar ketma-ketligi. Tabiiy fanlar asoslari.

	<p>Quyidagilarni bajara olish:</p> <p>Tasavvurda aylantirish: shakl va obyektlarni muayyan burchakka soat yo‘nalishi bo‘ylab va unga qarshi.</p> <p>O‘rnatish: shakl va obyektlarni o‘zaro bog‘liqligini; Obyektlar o‘rtasida mantiqiy bog‘liqligini.</p> <p>Aniqlash: amalga oshirilgan harakatlar ketma-ketligini; obyektlarning joylashuvi ketma-ketligini; obyektlarni ichlab chiqarishning muhim belgilarini; obyektlarning ketma-ket o‘zgarish mantig‘i.</p> <p>Belgilash: tasvirlar bilan arifmetik amallar, simmetrik shaklni yasash, keltirilgan namuna asosida amallar.</p> <p>Yetishmayotgan qismni tanlash asosida obyektlarning yaxlit qiyofasini yaratish.</p> <p>Shakl va obyektlarning muhim belgilarini belgilash</p> <p>Tasavvurda obyekt va shakllarni tarkibiy qismlarga ajratish.</p> <p>Obyektlarning to‘g‘ri ketma-ketligini aniqlashda keltirilgan ma’lumotni qo‘llash.</p> <p>Obyektning to‘liq tasvirini yaratish.</p> <p>Butun obyektlardan, obyekt to‘plamidan abstrakt bog‘liqliklarini ajratish.</p> <p>Geografik kartalar bilan ishlay olish</p>
Raqamli testlar	<p>Quyidagi tushunchalarni bilish</p> <p>Natural sonlar. Kasrlar. Juft va toq sonlar, matematik formulalar. Arifmetik amallar. Sonlar qatori. Izchillik. Matematik masalalar. Sonli boshqotirmalar. Mantiqiy masalalar. Kombinatorika. Muhim arifmetik amallar. Matematik formulalarning obyekt va shakllar bilan aloqasi. Tartiblash. Matematik, mantiqiy masalalarni, sonli boshqotirmalarni yechish usullari.</p> <p>Quyidagilarni bajara olish:</p> <p>Hisoblash: sonlar qatori, mantiqiy misol va masalalarni, sonli boshqotirmalarni</p> <p>Tushirib qoldirilgan raqamni topish.</p> <p>Aniqlash: sonlar qatorida raqamlar ketma-ketligini muhim xususiyatlar, tushirib qoldirilgan sonni hisoblash, mantiqiy masalalarni, sonli boshqotirmalarni yechish.</p> <p>Belgilash: sonlar qatorida sonlarning mantiqiy ketma-ketligini; tushirib qoldirilgan sonni hisoblashni;</p>

	mantiqiy misol va masalalar, sonli boshqotirmalar yechimlarini; son va shakllarning mantiqiy bog‘liqligini
Verbal testlar	Quyidagi tushunchalarni bilish
	Leksika (so‘z shakllar, antonimlar, sinonimlar, omonimlar, paronimlar). Orfografiya. Ona tilini yaxshi bilish va undan foydalanish.
	Quyidagilarni bajara olish:
	Antonim so‘zlarni aniqlash, berilgan so‘zdan farq qiluvchi so‘zni topish
	Antonim so‘zlarni aniqlash, ma’no jihatidan farq qiluvchi so‘zni topish
	Sinonim so‘zlarni aniqlash, berilgan so‘z bilan umumiy ma’noga ega so‘zni topish hamda ma’no jihatidan farq qiluvchi so‘zni topish.
	Omonim so‘zlarni topish – talaffuz etilishi va yozilishiga ko‘ra mos, lekin ma’nosiga ko‘ra farq qiluvchi so‘zlardan foydalanish.
	So‘zlarning lug‘aviy ma’nosini tushunish.
	So‘z va tushunchalar o‘rtasidagi mantiqiy qonuniyatlarini tushunish; so‘zlarning o‘zaro mantiqiy bog‘liqligini anglash.
	Berilgan shart asosida so‘z (so‘zlar) shakllarini tuzish
	Tildan foydalanish qobiliyatini namoyish etish
	Berilgan maqollar, aforizm va gaplar o‘rtasida mantiqiy bog‘liqlikni o‘rnata olish
	Tafakkurning egiluvchanligini namoyish etish, ya’ni tez fikrlash, bir topshiriqdan boshqasiga tez ko‘chish, aqliy qoliplardan voz kecha olish va ehtimolligi kam bo‘lgan yechimlardan voz kechgan holda mavjud vaziyatni yangi tusda ko‘ra olish.
	Butun test topshiriqlarini bajarish davomida hissiy barqarorlikni namoyish etish – bajarilayotgan topshiriqda diqqatni jamlagan holda operativ xotiradan faol foydalanish. Cheklangan vaqt davomida fikrlash qobiliyatidan samarali foydalanish qobiliyatini namoyish etish.
	Belgi va harflarni, raqamlarni, shakllarni o‘zaro taqqoslashga asoslangan topshiriqlarni bajarish asosida idrokning aniqligini namoyish etish
	Quyidagi tushunchalarni bilish:

Verbal mantiqiy testlar	Alifbo. Son bilan ifodalangan anagrammalar. Harf bilan ifodalangan anagrammalar. So‘zlarning ma’nosi. So‘zlarning o‘zaro bog‘liqligi. Tushunchalar klassifikatsiyasi. Tabiiy fanlar, til va adabiyot, san’atga oid tushunchalar.
	Quyidagilarni bajara olish:
	Aniqlash: son va harflarning o‘zaro mantiqiy bog‘liqligini; alifboda harflar ketma-ketligining mantiqiy qonuniyatlarini
	Anagrammani yechish.
	Tushunchalarni klassifikatsiyalash.
	So‘zlarning o‘zaro mantiqiy bog‘liqligini tushunish. So‘zlar o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqlikni tushunish.
	So‘zlarning birlashtiruvchi xususiyatlarini tushunish.
	So‘zlarning ma’no jihatdan farqlanishini tushunish.

6. Ajratilgan vaqt (javoblar varaqasini to‘ldirish bilan birga):

- 50 ta test topshirig‘i uchun 40 daqiqa.

7. Baholash mezon

- har bir to‘g‘ri javob uchun 2 ball beriladi;
- maxsus psixologik tanlov natijalari 0 balldan 100 ballgacha baholanadi.

8. Tavsiya etilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Rasulov A.I., Toyirova L. I. Umumiy psixodiagnostika darslik. Toshkent, 2020
2. S.N.Alimxodjayeva F.I.Haydarov. Psixologik tashxis metodikalari majmuasi. Toshkent, 2008
3. А.Карелин. Большая энциклопедия психологических тестов. М., 2006
4. Дружинин В.Н. Психология общих способностей. 3-е изд. — СПб.: Питер, 2007.
5. Айзенк Г. Новые IQ тесты. - М.: Изд-во Эксмо, 2003.
6. Айзенк Г. Классические IQ тесты. Перевод с англ. К. Савельева. Москва: Изд-во Эксмо, 2011.
7. Мухордова О.Е., Шрейбер Т.В. Прогрессивные матрицы Равена: методические рекомендации. – Ижевск: Изд-во «Удмуртский университет», 2011.
8. Симон Мартин. IQ: развитие интеллекта и подготовка к тестам: Пер. с нем. — СПб.: БХВ-Петербург, 2010.
9. www.testoteka.narod.ru
10. www.amthauer-ist.com/ru
11. www.treningmozga.co